

BOLA TA'LIM-TARBIYASIDA OTA-ONANING TUTGAN O'RNI

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Ijtimoiy fanlar kafedrası o'qituvchisi

Ochilov Abror

MIG' 2-kurs 1-23-guruh talabasi

Yo'ldoshov Behruz Ibodulla o'g'li

Annotatsiya: *Ushbu maqolada bolani tarbiyalash, unga bilim va tarbiya berish faqat pedagogagina xos emas, balki ota – onaga, butun jamiyatga tegishli ekani, bola tarbiyasida ota – onaning o'rni naqadar muhimligi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *ota – ona, bola, o'qituvchi, o'quvchi, ilm, odob – axloq, ta'lim – tarbiya, barkamol avlod.*

Аннотация: *В данной статье задумывается о том, насколько важна роль родителей в воспитании ребенка, что воспитание ребенка, предоставление ему знаний и образования - дело не только педагога, а принадлежит родителям и всему обществу.*

Ключевые слова: *Отец – мать, ребенок, учитель, ученик, наука, манеры – мораль, воспитание – воспитание, совершенное поколение.*

Abstract: *In this article, it is thought about how important the role of parents is in the education of a child, that raising a child, giving him knowledge and education is not unique to the pedagogue, but belongs to parents and the whole society.*

Key words: *Father - mother, child, teacher, student, science, manners - morals, education - education, perfect generation.*

Kirish

Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumotlar

olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim va tarbiya bir-biri bilan uzviy bogliqdir. Inson ilmi bo'lishni istasa u eng avvalo tarbiyalanishi kerak. Tarbiyali inson mukammal ilm sohibi bo'la oladi. Har bir mamlakatning bugungi va ertangi kuni o'sha yurtdagi maktablarning holatiga, ta'lim-tarbiyaning sifatiga bog'liq.

O'sib kelayotgan yosh avlodning bilimi va ularning kelajakda qanday inson bo'lishiga qarab, yurtimiz kelajagini tasavvur qilishimiz mumkin. Shuning uchun ham: "Kelajak yoshlarning qo'lidadir" - deyishadi. Bolaga tarbiya berish avvalo oiladan boshlanadi. Biz oilani "kichik vatan" deb ataymiz. Aynan shu Vatan bola uchun dastlabki tarbiya maktabi bo'ladi. Qaysidir ma'noda ota-ona farzandining birinchi o'qituvchisi hisoblanadi. Shuning uchun ota-onaning o'zi ham yuksak axloqiy sifatlarga ega bolmog'i kerak. Bolaga o'zi yaxshi fazilatlar bilan o'rnatilgan bo'la oladigan ota-onaning farzandi kelajakda go'zal xulqli, yuksak ilmi, xalqqa foydasi tegadigan barkamol shaxs bo'ladi.

Asosiy qism.

Farzandga yaxshi tarbiya berish ota-onaning asosiy mas'uliyatli vazifalaridan biridir. Bu borada ular har qadamda mas'uliyat bilan yondashmog'i lozim. Kelajakdagi yo'li ravon bo'lishini istagan har bir ota-onalar sarflaydigan vaqtini va harakatini ertaning buyuk insonlari bo'lgan farzandlarini ulg'aytirish uchun sarflashlari lozim. Farzand kamoloti uchun sarflangan har bir daqiqa ertangi farovon hayot uchun tamal toshi bo'ladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Agar ota-ona vaqtida farzandiga e'tibor qaratmasa, uning kelajagi uchun qayg'urmasa, keyinchalik afsus – nadomat bilan yashashi muqarrar. Bu kelajakda muammolarni yuzaga chiqarishi mumkin. O'sha vaqtda esa muammolarni hal qilishga kech bo'lishi mumkin. Shunday ekan, farzandining taqdiri uchun e'tiborli bo'lib, uning xulqi, tarbiyasiga va ilm olishiga befarq bo'lmaslik lozim.

Xalqimizda "Qush uyasida ko'rganini qiladi" degan naql bejizga aytilmagan. Har bir ota-ona o'z farzandi uchun ko'zgidir. Ularning muomala va munosabati, o'zini tutishi farzandiga bo'lgan e'tibori alohida ahamiyatga ega. Buyuk mutafakkir shoirimiz Alisher Navoiy farzand tarbiyasi xususida shunday deydi: "Yosh bolaga nisbatan eng zarur ish bilki, uni kichkinaligidan parvarish qilishdir. Qatrani sadaf

tarbiya qilgani uchun odamlarning boshiga chiqib sharaf topdi. Tarbiyaning yana biri bo'laga ilm-u adab o'rgatish uchun muallim chaqirishdir. O'g'ling bilimsizligicha qolib ketsa, ajab kamchilik bo'ladi. Unga sening shafqat qilishing foydalidir, lekin buning ortiqchasi zarardir". Bu fikrlar orqali qattiqqo'llik va shafqatning me'yorda bo'lishini bilish mumkin. Bandalarining halol va pok yashashini ko'zlab, ular foydasiga «Alloh sizlar uchun o'zlarinigizdan juftlar yaratib, juftlaringizdan sizlar uchun o'g'illar va nabiralar paydo qildi va sizlarni pok narsalardan rizqlantiradi...» degan oyati kalimani nozil qilgan, marhamati cheksiz Alloh taologa beaded hamdu sanolar bo'lsin! Bashariyat hidoyatchisi, insoniyat muallimi, ulug' murabbiy, namunali oila boshlig'i, ummatning haq yo'lda barqaror bo'lishida beqiyos hissa qo'shgan va: «Uylaninglar, ko'payishinglar, chunki men qiyomat kunida ummatimning ko'pligi bilan faxrlanaman», deb marhamat etgan zot Rasulullohga (sollallohu alayhi va sallam) cheksiz salavotlar bo'lsin!

Muqaddas dinimiz ta'limotida farzand Alloh taolo insonga bergan eng ulug' ne'matlardan bo'lishi barobarida, u omonat hamdir. Bu buyuk ne'matga sazovor bo'lgan ota-onalar uning qadriga yetishlari, shukrlar aytib, farzand oldidagi ota-onalik burchlarini puxta ado etishlari, ya'ni, unga chiroyli ism qo'yishlari, yaxshi ta'lim-tarbiya berishlari va oxir-oqibatda Alloh roziligini topadigan, millati, Vatani, ota-onasiga munosib o'g'il-qiz, tengdoshlari hurmati va muhabbatini qozongan yetuk bir inson bo'lishi borasidagi mas'uliyatli vazifalarini chin ixlos va sadoqat bilan ado etishlari lozim bo'ladi.

Yangilanayotgan O'zbekiston sharoitida oila qadriyatlarining tiklanishi va qarindoshlik munosabatlari, har bir oilaning iqtisodiy, madaniy, kasb-kor jihatdan ravnaq topishini anglatadi. Oila va oila muammolari hamisha davlatning diqqat-e'tibori va himoyasida bo'lib kelmoqda. Jamiyat taraqqiyotini harakatga keltiruvchi hujjat bo'lgan Qomusimiz– Konstitutsiyamizda oila masalasiga ham alohida urg'u berilgan. Konstitutsiyamizda: "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega", deb yozilgan.

Oila – Vatan ichra bir mo'jaz Vatan. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganlaridek, "Avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat

qo'rg'oni bu – oiladir”. Bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimiz barkamol avlodni tarbiyalashdir. Shu bois ham mamlakatimizda barcha xayrli ishlar avvalo oilalarni mustahkamlash va yosh avlodning yorug' kelajagini ta'minlash maqsadida amalga oshirilmoqda. Zero, oila sog'lom ekan, jamiyat mustahkam, jamiyat mustahkam ekan, mamlakat barqarordir. Farzand tarbiyasi ko'p omillarga, avvalo, axloqiy-ma'naviy muhitga bog'liqdir. Albatta bola tarbiyasi o'ta murakkab va ma'suliyatlidir. Bu har bir ota-onadan o'z ustida muntazam ishlashni, bolalar tarbiyasiga oid barcha ma'lumotlardan boxabar bo'lib borishni talab etadi. Farzand tarbiyasi bu shunchaki tajriba, oddiy ko'rsatma va bilimlar jamlanmasi emas, balki o'z ichiga diniy-axloqiy bilimlar, tibbiyot, etika, psixologiya, pedagogika kabi sohalariga oid bilimlarni ham qamrab oladigan murakkab jarayondir. Ushbu jarayonni boshqaruvchi inson onadir. Bu masalada otalarning o'rni ham beqiyos, shunday bo'lsada bolalarning kelajakda yetuk inson bo'lishi, jamiyatda o'z o'rnini topishi va hayotda o'z o'rnini ko'ra olishi onalarning tarbiya masalasiga qay darajada yondashishiga bog'liqdir. Farzand tug'lishi bilan birinchi emotsional muloqot qiluvchi insoni onasidir. Bolalar tug'ilgandan so'ng, dunyoni onasining unga bo'lgan munosabati orqali tanii boshlaydi. Onalar qanchalik bolasiga mehribon bo'lar ekan, bolaning dunyoga bo'lgan ishonchi ortib boradi. Bola chaqaloq davridan ona mehriга yetarlicha qoniqmas ekan, katta bo'lganda dunyoga bo'lgan munosabatida, o'ziga beradigan bahosida, odamlarga bo'lgan ishonchida noqisliklar bo'ladi. Chunki ona mehri eng avvalo chaqaloqqa xavfsizlik hissini beradi. Bu emotsional bog'lanish bolaning hayoti davomida eng muhim omil hisoblanadi. Bolalarimizga ijtimoiy ahloq normalarni o'rgatib borar ekanmiz, o'zimiz qanchalik bu kundalik axloqiy normalarga, dinimiz ta'limotiga qay darajada amal qilishimiz tarbiya ta'sirida muhim omil hisoblanadi. Onalarning dunyoqarashi, tarbiya olganlik darajasi, insoniy xislatlari, oiladagi o'rni, atrofdagilar bilan muloqot qila olish fazilatlarini farzandlariga berayotgan tarbiyalarida yanada namoyon bo'ladi. Onaning ruhiy holatida notinchlik, bezovtalik, xavotir, qo'rquv, odamlarga bo'lgan ishonchsizlik, hamda o'ziga bo'lgan ishonchning pastligi, janjalkashlik, jamiyatdagi ijtimoiy normalarga rioya

qilmaslik kabi salbiy xislatlar bo'lsa, bunday onalarning farzandlari fe'l atvorida ham shu kabi xislatlar namoyon bo'lish ehtimoli yuqoridir. Bolalar o'sib borar ekan, ularning ruhiy va aqliy xislatlarida o'zgarishlar bo'lib boradi. Bu o'zgarishlarni to'g'ri yo'lga burish, ularga vaqtida e'tibor berish asosan onalarning burchidir. Shuningdek, onalar ham o'z ustilarida ishlashlari, dunyoqarashlarini kengayishiga harakat qilishlari, bolalar tarbiyasiga taalluqli adabiyotlar bilan tanishishlari, o'zlari o'rganayotgan tarbiya masalalariga oid ko'rsatmalarni eng avvalo o'zlarida tadbiq qilishlari lozim. Onalarning o'zlarida shariatimiz talablariga, ijtimoiy ahloq normalariga amal qilish bo'lmas ekan, farzandalarning yetuk, ilmi, axloqli inson bo'lishi dargumondir. Onalar o'z odatlari bilan o'zlari sezmaganda katta ta'sir qiladilar. Oiladagi qo'pol munosabatlar, ko'p yolg'on gapirish, yoqimsiz xatti-harakat bola tarbiyasiga salbiy ta'sir qiladigan nosog'lom muhitni keltirib chiqaradi. Abdulla Avloniy «Turkiy Guliston yoxud axloq» kitobida bunday keltiradi: «Alloh taolo insonlarni asl xilqatda iste'dod va qobiliyatli, yaxshi bilan yomonni, foyda bilan zararni, oq bilan qorani ajratadigan qilib yaratgan. Lekin insondagi bu qobiliyatni kamolga yetkazish tarbiya bilan bo'lur. Qush uyasida ko'rganini qilar».

Oilada ma'naviy-ruhiy muhit, bola tarbiyasida g'oyat muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Oila sog'lom, yetuk farzandni ulg'aytirib kamol toptirishda mas'uldir. Farzandni sog'lom, yetuk, bilimli, shijoatli qilib voyaga yetkazish oilaga, ota-onaga bog'liqdir. Farzand tarbiyasida ota – onaning roli bugungi kunda dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Zeroki yaxshi farzand ota-onaning yuzi, vatanning or-nomusidir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, har bir ota-ona bolasiga vaqt ajratib, uning ilm olishi, tarbiyasi uchun mas'uliyatni his qilmog'i lozim. Go'zal odob-axloq, chiroyli ilm farzandni bezabgina qolmasdan, balki jannatda ota-onaning boshiga toj ham kiydiradi. Bolaning tarbiyasi bilim olishiga ham katta ta'sir qiladi. Ota-ona o'z bolasini ilmi, komil inson bo'lishini istasa bolasiga to'g'ri tarbiya beradi, o'qishidan xabardor bo'lib turadi, o'qituvchi bilan doim aloqada bo'ladi. Shundagina farzandidan yaxshi natija kutishi mumkin. O'z farzandini kamolotini ko'rishni istagan ota-ona hamma masuliyatni o'qituvchiga yuklamaydi, balki o'qituvchi bilan doimo birga faoliyat olib boradi. Ota-ona farzandiga ustozni

hurmat qilishni, ustoz ikkinchi ona ekanini, maktab ikkinchi uy ekanini uqtirishi kerak. Shundagina bola ustozini hurmat qiladi, uning barcha o'rgatgan narsalarini xotirasida muhrlaydi. Bu esa shu o'rgangan narsalarini keyinchalik hayotida qo'llay olishiga yordam beradi. "O'qituvchilar yomgir tomchisi bilan taqqoslanadi. Yomgir har bir donning hayotiyligini uyg'otar ekan, o'qituvchining asosiy maqsadi har bir o'quvchining ijodiy imkoniyatlarini ochib berishdir". Tomchi suvlar orqali suvga tashna yerga tushadi va u yerdan navqiron, yosh nihollar unib chiqadi. Ya'ni ilmga tashna o'quvchilarni kelajagi bor inson sifatida shakllantiradi. O'qituvchi bolalarga ta'lim-tarbiya bilan birga hayotda yashashni o'rgatadi. Hayotning oq-u qorasini ustoz tanitadi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Maktabga birinchi kelgan bolani sayqallanmagan tosh desak, o'qituvchini esa sangtarosh deymiz. O'qituvchi ya'ni sangtarosh sayqallanmagan toshdan go'zal bir ko'hinur yaratadi. Bu jarayon oson bo'lmaydi. Albatta bunda ota-ona ham o'qituvchi bilan hamkorlikda ishlashi kerak. Ikkala tomon ham bunga ancha mehnat sarflaydi. Shuncha mehnatning natijasi, albatta go'zal bo'ladi. Faqatgina o'qituvchi harakat qilib, ota-ona yoki o'quvchi harakat qilmasa, bunda ham natija bo'lmaydi. Ota-onalarning o'qituvchilar bilan uchrashib turishi kerak. Chunki ular o'z farzandlari to'g'risida ko'proq narsalarni bilib oladilar. Shuning uchun bola tarbiyasining tub mohiyatini tushungan va bolasining tarbiyasiga befarq bo'lmagan har bir ota-ona oila bilan maktab o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga intiladi.

Xulosa

Bolaning kamol topishi uchun o'qituvchi ham, ota-ona ham xatto o'sha bolaning o'zi ham harakat qilishi kerak ekan. Shundagina o'sish bo'ladi, natija bo'ladi. Bolani tarbiyalashda ota-onaning o'rni beqiyosdir. Ota-ona o'z farzandini kamoli uchun uning tarbiyasiga, ilm olishiga e'tiborli bo'lishi kerak. Jamiyat taraqqiy etmog'i uchun tarbiya samarali bo'lishi kerak. Samarali tarbiya uchun ota-ona ilmi tarbiyali bo'lishi kerak. Farzandlarimiz ilmi va tarbiyali bo'lishi uchun o'zimizni ma'naviy rivojlantirishimiz va atrofdagi bolalar tarbiyasiga ham befarq bo'lmasligimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. V. Karimova “ Oila psixalogiyasi” Toshkent – 2008 55-57-bet.
2. O.M. G‘aybullayev “ Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi “ Toshkent – 2019
261- 264 – bet.
3. Abdulla Avloniy “ Turkiy Guliston Yoxud Axloq “ Toshkent – 2004 5-6-bet.
4. Wikipedia